



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 03 | pp. 438-443 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI



Azimova Hulkar Egamberdiyevna,

katta o'qituvchi, Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kredit portfeli sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlari o'sishining mo'tadil darajasiga amal qilish masalalari bayon etilgan bo'lib, statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasida bank tizimini isloh qilish bo'yicha 2020-2025 yillarga mo'ljallangan strategiyada nazarda tutilgan kredit portfeli va risklarni boshqarish sifatini yaxshilash kabi ustuvor masalalarning ahamiyati izohlangan. Shuningdek, 2024-yil tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar tarmoqlar kesimida tahlil qilingan hamda kredit portfeli va muammoli kreditlar bilan ish olib borilishi, ushbu sohada kredit berish va qaytarib olish tizimining samarali faoliyatini ta'minlash borasida xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kredit siyosati, tavakkalchilikni boshqarish, kredit portfeli, bank tizimi, likvidlik koeffitsienti, bank aktivi, ssuda kapitali

Аннотация: В данной статье на основе статистических данных описаны и проанализированы вопросы повышения качества кредитного портфеля и управления рисками при соблюдении умеренного уровня роста объемов кредитования. Разъяснена важность таких приоритетных вопросов, как повышение качества кредитного портфеля и управление рисками, предусмотренных в Стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020-2025 годы. Также были проанализированы кредиты, выданные коммерческими банками в 2024 году по отраслям, сделаны выводы и предложения относительно кредитного портфеля и проблемных кредитов, а также обеспечения эффективной работы системы кредитования и погашения в этой сфере.

Ключевые слова: кредитная политика, управление рисками, кредитный портфель, банковская система, коэффициент ликвидности, банковские активы, ссудный капитал.

Annotation: This article describes the issues of improving the quality of the credit portfolio and risk management, maintaining a moderate level of growth in lending volumes, and analyzes them based on statistical data. The importance of priority issues such as improving the quality of the credit portfolio and risk management, as provided for in the Strategy for Reforming the Banking System of the Republic of Uzbekistan for 2020-2025, is explained. Also, loans allocated by commercial banks in 2024 are analyzed by sector, and conclusions and proposals are presented on working with the credit portfolio

and problem loans, ensuring the effective functioning of the lending and recovery system in this area.

Keywords: credit policy, risk management, credit portfolio, liquidity ratio of the banking system, bank assets and loan capital.

Kirish. Bugungi kunda ko'pgina davlatlar bank tizimida umidsiz qarzlarning ko'payishi muammosiga duch kelayotganligi tufayli banklarning muammoli kreditlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish masalalari dolzarbligi hozirgacha muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun kreditorlar bilan bir qatorda mijozlar tomonidan kreditni qaytarish bo'yicha o'z yechimini topmagan muammolar mavjud. Tijorat banklari kredit operatsiyalari bank daromadlarini shakllantiruvchi faoliyat bo'lganligi sababli kredit portfelining sifat darajasining barqarorligini ta'minlash banklarning asosiy vazifalari sanaladi. Kreditlash tijorat banklari uchun birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat turi hisoblanadi. Tijorat banklari kredit portfeli sifatining pasayishi ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi, bunda muddati o'tgan kreditlarning kredit qo'yilmalari hajmidagi salmog'ining oshishi esa bankning likvidlik darajasini pasayishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham tijorat banklari kredit portfelini to'g'ri shakllantirishga alohida e'tibor qaratadi. Iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlari hajmining oshishi, ulardan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yurituvchi sub'yektlar sonining oshishi, banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish, ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash vazifalari banklar kredit portfeli ustidan doimiy nazorat olib borish muhimligini taqozo etadi.

Ta'kidlash joizki, banklarning kredit portfeli o'sishini optimallashtirish va kreditlarning tavakkalchiliklarini kamaytirish chora-tadbirlari quyidagicha nazarda tutilgan:

- banklar kredit portfeli o'sish darajasini optimallashtirish uchun makroiqtisodiy moslashuvchan tarzda qo'llash;

- bank tizimi yirik qarzdorlarini qarz yuklarini tartibga solish, shu jumladan haddan tashqari qarz yukiga ega bo'lgan eng yirik qarzdorlarga kreditlar berish bo'yicha cheklovlarni hamda qarz yukining ruxsat etilgan darajasini belgilash; [1]

Shuning uchun ham kredit portfeli va risklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmining mo'tadil o'sishiga amal qilish va kreditlashning faqat bozor shartlari asosida amalga oshirilishini ta'minlash nazarda tutilgan. E'tiborli jihati shundaki, mazkur strategiyada yaxshi xizmat ko'rsatilmayotgan va zaif qatlamlarda davlat ishtirokini kuchaytirish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, nobank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish boyicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, olib borilayotgan ustuvor vazifalar tarkibida bank tizimini xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish banklarga ichki va tashqi investitsiyalarni safarbar etish, ularning faoliyatini tijoratlashtirish, investotlarning ishonchini oshirish orqali bank tizimining iqtisodiyotdagi ahamiyati muhimligini ifodalaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid olimlarning ilmiy nazariyalari va tadqiqot ishlari bilan tanishib chiqildi. "Kredit portfeli" tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turlicha ta'rif berilgan. Iqtisodchi olimlar tomonidan kredit portfeliga keng ta'rif berilib, ya'ni bankning barcha moliyaviy aktiv va passivlarini kiritsa, boshqa olimlar tomonidan esa ushbu tushunchani bankning faqatgina ssuda operatsiyalari bilan bog'lashadi. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham bu borada qator izlanishlarni olib borishgan, xususan, Sh.Z.Abdullaevaning fikriga ko'ra, banklarning muddati o'tgan kreditlari-bu turli xil kredit risklariga asoslangan muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlarning qaytarilishida yo'l qo'yilgan kamchiliklar bo'lib, asta sekin umumiy bank aktivlarining standart holatiga ta'sir qilishi ifodalangan. Uning turli shakllarida kreditorning belgilangan qarzni kech to'lashi yoki to'liq to'lamasligi va bunda belgilangan muddatlarda to'lamasligi kredit portfelining yomonlashuviga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, banklar faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy o'rinni egallagani uchun ularning kredit operatsiyalarini to'g'ri tashkil qilish banklarning samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishida yetarli darajada imkoniyat yaratib beruvchi eng muhim asosiy omillardan hisoblanadi.

Sh.Z.Abdullaeva "Bank risklari va kreditlash" nomli kitobida kredit portfelini kengroq ilmiy asoslab bergan. Unda kredit portfelining mohiyatini ochib berishda quyidagi omillarni inobatga olinishi zarurligi aytilgan:

- kreditlar bo'yicha risk darajasi;
- kredit berish ob'ektlari;
- kreditdan foydalanish muddati;
- kreditning hajmi va ta'minlaganligi;

- mijozning moliyaviy holati, mulk shakli va boshqalar [2]. O.I.Lavrushinning fikricha "Tijorat banki kredit portfeli o'zida ssuda ko'rinishidagi barcha bank aktivlari - ro'yxatga olingan veksellar, banklararo kreditlar va depozitlar hamda boshqa kredit ko'rinishidagi talablarni ma'lum mezonlar asosida sifat guruhlari bo'yicha tasniflarini mujassamlashtiradi"[3]. Jarkovskaya E.P. fikricha "Mijozlarga kredit berishning eng maqbul variantini taklif qilish uchun bank tashkiloti qarz oluvchidan uning xizmatiga o'tishni talab qiladigan holatlar tez-tez uchraydi. Shuning uchun kredit olish uchun bankka murojaat qilishi eng yaxshi taklifga aylanadi"[4].

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarga asoslangan holda ta'kidlash mumkinki, kedit portfeliga muddati o'tgan kreditlar ham, shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar ham kiradi. Mijozlarga tijorat banklari tomonidan berilgan barcha kreditlar uning kredit portfelida ta'sirini keltirib chiqaradi. Tijorat bankining kredit portfeli- bu bankning kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur asos bo'lib, bank tomonidan berilgan jami kreditlarning yig'indisida namoyon bo'ladi. Tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalarini olib borishda yuzaga kelgan kamchiliklar banklar daromadining kamayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham banklarning kredit portfeli va uning sifatini nazorat qilib borish tijorat banklari samarali faoliyatining mezonidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiy iqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish masalalari bo'yicha izlanishlari, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali

tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida umumiyqtisodiy usullar bilan bir qatorda ma'lumotlarni tizimlash bo'yicha maxsus yondashuvlar, ya'ni taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

Muhokama. Bugungi kunda kredit portfeli sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish, uning sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlari o'sishining me'yorida shakllanishiga erishish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Vaholanki, moliyaviy barqarorlikka erishish O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berilgan. Hozirgi vaqtda kredit portfelining holati nafaqat bankning kredit siyosati sifatini, balki kelgusida bank uchun kredit faoliyati natijalarini tahlil qilib borish imkonini ham beradi. Tijorat bankining kredit portfelini shakllantirish, optimallashtirish va sifatli boshqarish kredit siyosatini amalga oshirishning asosiy bosqichi hisoblanadi. Ayni vaqtda kredit portfelining holati bankning kredit siyosati sifatining samaradorligini ham ifodalaydi. Kredit portfelini samarali shakllantirish uchun birinchi navbatda kreditlash jarayonini to'g'ri va o'z o'rnida amalga oshirishini keltirib chiqaradi. Kredit siyosati tijorat bankining yagona kreditlash tizimini vujudga keltiradi.

Tahlil va natijalar. Kredit portfelini tijorat banklarida samarali boshqarishning pirovard maqsadi ushbu portfelning risk, daromadlilik va likvidlilik ko'rsatkichlarining optimal darajasiga erishish hisoblanadi. Tijorat banklarida kredit portfeli sifatini takomillashtirish masalalarining ko'plab omillari mavjud bo'lib, ularning ayrimlari quyidagilardan iborat :

- tijorat banklarida aktivlar sifati ustidan monitoring olib borish natijasida bank aktivlari bilan bog'liq muammoli holatlarni dastlabki holatda aniqlab ularni bartaraf etish mexanizmini mustahkamlashga erishiladi;


- aktivlarni diversifikatsiya qilib borish va kredit portfelini sifatini oshirish orqali tavakkalchiliklarni samarali boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlari ishlab chiqish

- bank tizimiga oid qabul qilingan qarorlar hamda kredit munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar ijrosini tashkil qilish asosida kreditlash jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni baholash, o'rganish, ularni tahlil qilish, biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishini nazorat qilish; muammoli kreditlarni boshqarishning yangi usullarini shakllantirish;

Banklarda muntazam ravishda muddati o'tgan kreditlar miqdorini minimallashtirish, kredit portfeli tarkibining tasdiqlangan kredit siyosatiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikda bank kredit portfeli muntazam ravishda tahlil qilib borilishi natijasida kredit sifatini aniqlash bilan bir qatorda kreditlash jarayonini boshqarish uning sifatini baholash mezonlariga alohida e'tibor qaratish muhimdir. Yuqoridagi keltirilgan fikrlarimizning amaliy isboti sifatida quyidagi diagramma ma'lumotlarini tahlil qilamiz:

2024-yil tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar tarmoqlar kesimida. (mlrd so'm)

2024-yil Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar tarmoqlar kesimida



2024-yil davomida tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi keltirilgan. Endi ushbu ma'lumotlarni qisqacha tahlil qilamiz:

Umumiy kredit hajmi tahlili bo'yicha, yanvardan sentabrgacha tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi sezilarli darajada ortgan. Yanvarda 14,655.8 mlrd so'm bo'lsa, sentabrda bu raqam 22,437.8 mlrd so'mga yetgan. Eng yuqori kredit may oyida ajratilgan-25,729.2 mlrd so'm. Eng past kredit hajmi yanvarda bo'lgan.

Sanoat sektori doimiy ravishda eng katta ulushlardan birini egallaydi. Yanvarda 3,433.3 mlrd so'm bo'lsa, sentabrga kelib 5,611.5 mlrd so'mgacha oshgan. Qishloq xo'jaligi kreditlari sezilarli o'sish ko'rsatgan, fevral oyida keskin ko'tarilib 1,726.1 mlrd so'mga, iyun oyida esa 1,677.2 mlrd so'mga yetgan. Qurilish uchun ajratilgan kreditlar fevral-mart oylarida oshib, iyul-sentabr oralig'ida barqaror bo'lgan. Savdo va umumiy ovqatlanish uchun berilgan kreditlar eng yuqori darajaga avgust oyida (3,622.9 mlrd so'm) yetgan. Transport va kommunikatsiya sektori uchun kreditlar nisbatan kamroq bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich iyul oyida (606.4 mlrd so'm) kuzatilgan. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar umumiy kreditlar ichida eng katta ulushni egallaydi va muntazam o'sish tendensiyasiga ega. Yanvarda 6,268.9 mlrd so'm, sentabrga kelib esa 9,212.8 mlrd so'mga yetgan. Boshqa tarmoqlar bo'yicha ajratilgan kreditlar ham sezilarli darajada ortib, aprel oyida 3,439.3 mlrd so'm bilan eng yuqori ko'rsatkichga erishgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar yildan-yilga barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning pirovard maqsadi ushbu portfelning risk, daromadlilik va likvidlilik ko'rsatkichlarining optimal darajasiga erishish hisoblanadi.

Fikrimizcha, tijorat banklarida kredit portfelining sifat jihatdan samaradorligini oshirish masalalari quyidagi bir qator omillarda ifodalanadi:

birinchidan, bank aktivlari sifati ustidan doimiy, ta'sirchan monitoring olib borish, bank aktivlari bilan bog'liq muammoli holatlarni dastlabki bosqichlarda aniqlash va bartaraf etish mexanizmini mustahkamlash;

ikkinchidan, banklarda aktivlarni diversifikatsiya qilish orqali kredit portfelini yaxshilash tadbirlarini pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

uchinchidan, bank tizimiga oid qabul qilingan qarorlar hamda kredit munosabatlarini tartibga soluvchi meyoriy-huquqiy hujjatlar asosida kreditlash jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni hisobga olish va ularni tahlil qilish;

Xususan, banklarning kredit operatsiyalari hajmi oshadi va kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning barqaror o'sishi ta'minlanadi. Banklarda mijozlarning kreditga layoqatliligi ko'rsatkichlarini baholash tizimini takomillashtirish. Respublikamiz tijorat banklari amaliyotida mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashda muammolarni mavjudligi kredit portfeli sifatiga va uning barqaror o'sishiga salbiy ta'sir qilmoqda. Avvalombor, mijozning kreditga layoqatliligini adolatli baholanishi kreditlarning o'z vaqtida to'la qaytishini ta'minlaydi. Kreditlar ajratish borasida qarorlar qabul qilishda banklarning kredit qo'mitalari va mas'ul xodimlarining javobgarligini, mas'uliyatini oshirish, kreditlardan foydalanish va qaytarilishi monitoringining mexanizmlarini to'g'ri shakllantirish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni o'z vaqtida aniqlash, sifatli baholash va bartaraf etilishi natijasida, bankning kredit portfeli sifatini yaxshilanib borilishiga erishish maqsadga muvofiqligini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4811025>.

2. Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash.-T.: Moliya, 2002y-304 b. 45-46-betlar.

3. О.И.Лаврушин, И.Д.Мамонова, Н.И.Валенцева [и др.]; под ред. О.И. Лаврушина. Банковское дело: учебник-Москва: КноРус, 2016. – 800с.

4. Жарковская, Е.П. Банковское дело: для студентов вузов по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит» / Е. П. Жарковская. – 4-е изд., перераб. и доп.-М.: Омега-Л, 2012. – 452 с.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

